



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna	
BREND POZITSİYALASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна	
KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi	
GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloyevich Jurayev	



GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI



Jahongir Nurulloyevich Jurayev
Osiyo xalqaro universiteti "Iqtisodiyot"
kafedrası o'qituvchisi, PhD
ORCID: 0009-0007-4702-9782
E-mail: jahongir_juraev@list.ru

Annotatsiya. So'nggi o'n yillikda jahon iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda: xalqaro savdo qoidalari transformatsiyalanmoqda, global ta'minot zanjirlari qayta shakllanmoqda, raqamli texnologiyalar esa an'anaviy ishlab chiqarish va xizmatlar bozorining rivojlanish yo'nalishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuvning geoiqtisodiy parchalanish, texnologik raqobat va migratsiya oqimlarining kuchayishi bilan tavsiflanadigan yangi bosqichida O'zbekiston iqtisodiyotining mazkur jarayonlarga moslashuvi tahlil qilinadi. Tadqiqot 2017–2026-yillardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, tashqi savdo, xorijiy investitsiyalar, mehnat migratsiyasi hamda Jahon savdo tashkilotiga a'zolik jarayoniga oid ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalari mamlakatda tashqi iqtisodiy ochiqlikning kengayishi barqaror iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini, biroq globallashuv indeksi bo'yicha O'zbekiston ayrim qo'shni davlatlardan ortda qolayotganini ko'rsatadi. Tahlil natijalari asosida tashqi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda globallashuv bilan bog'liq iqtisodiy xatarlarga bardoshlilikini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, jahon iqtisodiyoti, Yangi O'zbekiston, tashqi savdo, Jahon savdo tashkiloti, xorijiy investitsiyalar, mehnat migratsiyasi, iqtisodiy integratsiya.

Аннотация. В последнее десятилетие в мировой экономике происходят глубокие структурные изменения: трансформируются правила международной торговли, перестраиваются глобальные цепочки поставок, а цифровые технологии оказывают существенное влияние на развитие традиционных рынков производства и услуг. Анализируются процессы адаптации экономики Узбекистана к новому этапу глобализации, характеризующемуся геоэкономической фрагментацией, технологической конкуренцией и усилением миграционных потоков. Исследование проведено на основе макроэкономических показателей за 2017–2026 годы, данных о внешней торговле, иностранных инвестициях, трудовой миграции и процессе вступления Узбекистана во Всемирную торговую организацию. Результаты исследования свидетельствуют о том, что расширение внешнеэкономической открытости оказывает положительное влияние на устойчивый экономический рост страны, однако по индексу глобализации Узбекистан всё ещё отстаёт от ряда соседних государств. На основе проведённого анализа разработаны научно-практические предложения, направленные на углубление внешнеэкономической интеграции, повышение конкурентоспособности национальной экономики и укрепление её устойчивости к экономическим рискам, связанным с глобализацией.

Ключевые слова: глобализация, мировая экономика, Новый Узбекистан, внешняя торговля, Всемирная торговая организация, иностранные инвестиции, трудовая миграция, экономическая интеграция.

Abstract. Over the past decade, the global economy has undergone profound structural transformations, including changes in international trade rules, the restructuring of global supply chains, and the growing influence of digital technologies on traditional production and service markets. The adaptation of Uzbekistan's economy to a new stage of globalization characterized by geoeconomic fragmentation, technological competition, and intensifying migration flows is examined. The study is based on macroeconomic indicators for 2017–2026, as well as data on foreign trade, foreign investment, labour migration, and Uzbekistan's accession process to the World Trade Organization. The findings indicate that greater external economic openness has contributed positively to the country's sustainable economic growth; however, Uzbekistan continues to lag behind several neighbouring countries in terms of the globalization index. Based on the analysis, scientific and practical recommendations are proposed to deepen external economic integration, enhance the competitiveness of the national economy, and strengthen its resilience to economic risks associated with globalization.

Keywords: globalization, world economy, New Uzbekistan, foreign trade, World Trade Organization, foreign investment, labour migration, economic integration.



KIRISH

Globalashuv jarayoni XXI asr boshlaridan buyon jahon iqtisodiy tizimining tub xususiyatiga aylanib, milliy iqtisodiyotlarning o'zaro bog'liqligini beqiyos darajada kuchaytirdi. Biroq so'nggi yillarda bu jarayon sifat jihatidan yangi bosqichga kirdi: an'anaviy erkin savdo tamoyillari bilan bir qatorda himoyachilik siyosati, sanoat subsidiyalari va texnologik "ajralish" (decoupling) tendensiyalari ham namoyon bo'lmoqda, ta'minot zanjirlari geosiyosiy manfaatlar asosida qayta shakllanmoqda, sun'iy intellekt va raqamli platformalar esa mehnat bozori hamda xizmatlar sohasini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu global kontekst kichik ochiq iqtisodiyotlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham yangi imkoniyatlar, ham iqtisodiy moslashuvni talab qiluvchi omillar manbaiga aylanmoqda.

2016-yildan boshlangan islohotlar, valyuta bozorining liberallashuvi, tashqi savdo va investitsiya muhitining ochiqligi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim yo'nalishlarini tashkil etadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida iqtisodiyotni tashqi bozorlarga chuqurroq integratsiya qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotidagi tizimli o'zgarishlar — proteksionistik tendensiyalar, energiya va oziq-ovqat bozorlaridagi o'zgaruvchanlik, moliyaviy oqimlarning yangi yo'nalishlarda shakllanishi — milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — globalashuvning hozirgi bosqichida jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ta'sirini kompleks tahlil qilish va milliy iqtisodiyotning tashqi omillarga bardoshlilikini oshirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti — O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari, predmeti esa globalashuv jarayonlarining tashqi savdo, investitsiya va migratsiya kanallari orqali milliy iqtisodiyotga ta'sir mexanizmlari hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: globalashuv nazariyalarini tahlil qilish; 2017–2026-yillardagi makroiqtisodiy dinamikani baholash; tashqi savdo, investitsiya va migratsiya ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda milliy iqtisodiyotning globalashuv jarayonlariga moslashuvi bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Globalashuv va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy fanda uzoq vaqtdan buyon muhokama mavzusi bo'lib kelmoqda. A. Dreher tomonidan ishlab chiqilgan KOF globalashuv indeksi asosida o'tkazilgan tadqiqotlar globalashuv darajasining yuqori bo'lishi, ayniqsa, uning iqtisodiy o'lchami mamlakatlarning uzoq muddatli iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan [1]. D. Dollar va A. Kraayning keng miqyosli tadqiqoti savdoga ochiqlik darajasi yuqori bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi daromadlari o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan tezroq o'sishini, ya'ni savdo orqali globalashuv kambag'allikni qisqartirishning muhim vositasi ekanligini asoslab bergan [2].

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari misolida o'tkazilgan tadqiqotda H. Gurgul va Ł. Lach o'tish davri iqtisodiyotlarida globalashuvning ijtimoiy o'lchami — internet, axborot almashinuvi va madaniy aloqalarning kengayishi — savdo va investitsiya oqimlari kabi iqtisodiy o'lchov bilan bir qatorda iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shishini aniqladilar [3]. Bu xulosa O'zbekiston kabi o'tish davri iqtisodiyoti uchun ham metodologik jihatdan muhim ahamiyatga ega, chunki raqamli transformatsiya va axborot ochiqligi mamlakat rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylangan.

So'nggi tadqiqotlarda globalashuvning ikki tomonlama tabiati alohida ta'kidlanadi: u rivojlanayotgan mamlakatlarga bozorlarga kirish, texnologiyalar transferi va samaradorlikni oshirish imkoniyatini yaratishi bilan birga, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, daromadlar mutanosibligini ta'minlash va tashqi omillarga moslashuvchanlikni oshirish zaruratini ham yuzaga keltiradi [10]. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda O'zbekistonning 2016-yildan keyingi ochiqlik siyosatini jahon iqtisodiyotining hozirgi geoiqtisodiy transformatsiyasi kontekstida tizimli o'rganishga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qolmoqda, bu esa mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik-iqtisodiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik baza sifatida Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon savdo tashkiloti va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2017–2026-yillardagi rasmiy hisobotlari va sharhlari, shuningdek, KOF Shveytsariya iqtisodiyot instituti tomonidan e'lon qilingan globalashuv indeksi ma'lumotlaridan foydalanildi. Yalpi ichki mahsulot dinamikasi, tashqi savdo hajmi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va pul o'tkazmalari ko'rsatkichlari vaqt qatorlari (time series) tarzida tahlil qilinib, ularning o'zaro nisbati va tendensiyalari aniqlandi. Kontent-tahlil usuli yordamida mamlakatning strategik rivojlanishiga hamda Jahon savdo tashkilotiga a'zolik bo'yicha muzokaralar jarayoniga oid rasmiy materiallar o'rganildi.



Tanlangan davr (2017–2026-yillar) mamlakat iqtisodiy siyosatidagi tub burilish nuqtasini — faol islohotlar boshlanishidan hozirgi kungacha bo'lgan davrni — qamrab olganligi bilan asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Makroiqtisodiy dinamika. 2017–2025-yillar davomida O'zbekiston YaMi o'rtacha yillik 6 foizga yaqin sur'atda o'sdi [4]. Agar 2017-yilda mamlakat iqtisodiyoti hajmi taxminan 56 milliard yevroni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich birinchi marta 145 milliard dollardan (rasmiy baholarga ko'ra, 133 milliard yevrodan) oshdi, aholi jon boshiga YaIM esa 1 750 yevrodan 3 220 yevrogacha ko'tarildi. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda real YaIM o'sishi 7,7 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2024-yildagi 6,7 foizdan yuqori bo'ldi. O'sish, asosan, eksportning tiklanishi, xususiyl iste'molning ortishi, shuningdek, xizmatlar, qishloq xo'jaligi hamda sanoat sohalarining kengayishi hisobiga ta'minlandi [4]. Osiyo taraqqiyot banki hisobotiga ko'ra, xizmatlar sohasi 14,7 foizga, qurilish sohasi esa 14,2 foizga o'sib, iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlariga aylandi, budjet taqchilligi esa YaIMning 2,1 foizigacha qisqardi [5]. Bir vaqtning o'zida inflyatsiya darajasi 2025-yil aprel holatiga ko'ra 10,1 foizni tashkil etib, narxlar barqarorligini ta'minlash borasidagi iqtisodiy chora-tadbirlarni izchil davom ettirish zarurligini ko'rsatadi [6].

Tashqi savdo va Jahon savdo tashkilotiga a'zolik jarayoni. Tashqi savdo ochiqqligining kengayishi O'zbekiston iqtisodiyotining globallashuv jarayonlariga integratsiyalashuvining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. 2025-yilda eksport hajmi 23 foizga o'sib, 33,4 milliard dollarga yetdi, oltin-valyuta zaxiralari esa tarixda birinchi marta 60 milliard dollardan oshdi. Ayni paytda mamlakat Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonining yakuniy bosqichida turibdi: 2026-yilga kelib jalb etilgan 34 ta a'zo davlatdan 33 tasi bilan ikki tomonlama muzokaralar yakunlangan, 190 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat JST talablariga muvofiqlashtirilgan [7]. Jahon bankining bahosiga ko'ra, JSTga a'zolik investitsiyalar oqimini kengaytirish hisobiga YaIMni 17 foizgacha oshirishi va milliy kambag'allik darajasini 1,6 foiz punktgacha qisqartirishi mumkin [4]. Bu JSTga a'zolikning shunchaki texnik protsedura emas, balki ichki islohotlarni chuqurlashtiruvchi strategik omil ekanligini tasdiqlaydi.

Xorijiy investitsiyalar. 2017–2025-yillar davomida O'zbekiston jalb qilgan xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada o'sdi: agar 2017-yilda bu ko'rsatkich taxminan 4,1 milliard yevroni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib yillik investitsiya oqimi 39,7 milliard yevrogacha yetdi, umumiy investitsiyalar esa YaIMning 31,9 foizini tashkil etdi. Bu, birinchi navbatda, texnologiyalar transferi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va energiya samaradorligi sohalariga qaratilgan islohotlar natijasi hisoblanadi.

Ishchi kuchi migratsiyasi va pul o'tkazmalari — globallashuvning ijtimoiy kanali. Globallashuvning ijtimoiy o'lchami O'zbekiston uchun, ayniqsa, mehnat migratsiyasi orqali namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda mamlakatga xorijdan 18,9 milliard dollar miqdorida pul o'tkazmalari kelib tushdi, bu 2024-yilga nisbatan 27–28 foizga ko'p bo'lib, so'nggi besh yil ichida uch baravardan ortiq o'sishni anglatadi [8]. Muhimi, pul o'tkazmalarining geografiyasi izchil kengaymoqda: an'anaviy yo'nalishlar — Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya va Turkiya — bilan bir qatorda Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan tushumlar 37 foizga, Buyuk Britaniyadan esa 39 foizga oshdi. Bir tomondan, bu daromadlar oilaviy iste'molni qo'llab-quvvatlab, kambag'allikni qisqartirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotning tashqi mehnat bozorlari konyunkturasidagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa globallashuvning ko'p qirrali xususiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Raqamli transformatsiya va institutsional muhit. So'nggi yillarda O'zbekiston Jahon bankining GovTech Maturity Index reytingida 71 pog'onaga ko'tarilib, dunyoning eng yaxshi 10 talik davlati qatoriga kirdi. Bu davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi globallashuv sharoitida raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasiga aylanganidan dalolat beradi [4]. Shu bilan birga, KOF Shveytsariya iqtisodiyot instituti tomonidan e'lon qilingan 2025-yilgi Globallashuv indeksida O'zbekiston 52,27 ball bilan dunyo mamlakatlari orasida 125-o'rinni egalladi. Mintaqada Qozog'iston 78-o'rinni, Qirg'iziston esa 93-o'rinni egallagan [9]. Demak, makroiqtisodiy ochiqlik va tashqi savdo hajmining o'sishi bilan bir qatorda, institutsional va ijtimoiy globallashuv o'lchovlari bo'yicha mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish mamlakatning mintaqaviy mavqeini mustahkamlash hamda keyingi islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Global tavakkalchiliklar. Mamlakat rahbariyati tomonidan qayta-qayta ta'kidlanganidek, milliy iqtisodiyot xalqaro savdo qoidalarining o'zgarishi, ishlab chiqarish va tashish zanjirlaridagi uzilishlar kabi global jarayonlar sharoitida ham barqaror o'sishni davom ettirmoqda. Bu globallashuvning yangi bosqichida kichik ochiq iqtisodiyotlarning tashqi iqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvchanligini oshirish maqsadida ichki islohotlarni izchil davom ettirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, 2017-yildan boshlangan islohotlar natijasida O'zbekiston jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv borasida sezilarli yutuqlarga erishdi: YalM hajmi va eksport barqaror o'sib bormoqda, xorijiy investitsiyalar oqimi kengaymoqda, Jahon savdo tashkilotiga a'zolik jarayoni yakunlanish arafasida turibdi. Shu bilan birga, globallashuvning ijtimoiy va institutsional o'lchovlari bo'yicha mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish, mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalarining iqtisodiy rivojlanishdagi ijobiy ta'sirini kuchaytirish hamda tashqi iqtisodiy omillarga moslashuvchanlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyotidagi hozirgi geoiqtisodiy parchalanish, himoyachilik siyosatining kuchayishi va texnologik raqobat sharoitida milliy iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash alohida e'tiborni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Jahon savdo tashkilotiga a'zolik jarayonini 2026-yilda yakunlash bilan bir qatorda, milliy qonunchilikni JST talablariga moslashtirish jarayonini eksport tarkibida tayyor va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish;

2. xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda texnologiyalar transferi va malaka oshirishga yo'naltirilgan loyihalarga ustuvorlik berish, shu orqali investitsiyalarning sifat tarkibini yaxshilash;

3. pul o'tkazmalarining ishlab chiqaruvchi investitsiyalarga aylanishini rag'batlantirish maqsadida moliyaviy savodxonlik dasturlarini kengaytirish va migrant oilalar uchun maxsus jamg'arma-investitsiya mahsulotlarini joriy etish;

4. raqamli davlat xizmatlari va GovTech yo'nalishidagi yutuqlarni institutsional islohotlar — sud-huquq tizimining shaffofligini oshirish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish — bilan mustahkamlab, globallashuv indeksining ijtimoiy va institutsional tarkibiy qismlari bo'yicha mamlakat o'rnini yaxshilash;

5. Markaziy Osiyo mintaqasi va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish orqali tashqi bozorlarni diversifikatsiya qilish hamda savdo-iqtisodiy hamkorlik geografiyasini yanada kengaytirish.

Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi O'zbekiston iqtisodiyotining jahon xo'jaligidagi o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanligini oshirib, Yangi O'zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dreher A. Does globalization affect growth? Evidence from a new index of globalization // *Applied Economics*. — 2006. — Vol. 38, No. 10. — P. 1091–1110.
2. Dollar D., Kraay A. Trade, growth, and poverty // *The Economic Journal*. — 2004. — Vol. 114, No. 493. — P. F22–F49.
3. Gurgul H., Lach Ł. Globalization and economic growth: Evidence from two decades of transition in CEE // *Economic Modelling*. — 2014. — Vol. 36. — P. 99–107.
4. World Bank Group. *Uzbekistan: Country Overview*. — Washington, D.C.: World Bank, 2026.
5. Asian Development Bank. *ADB: Uzbekistan's economic growth to remain strong in 2026–2027, supported by reforms and investment*. — Manila: Asian Development Bank, 2026.
6. International Monetary Fund. *IMF Executive Board concludes 2025 Article IV consultation with the Republic of Uzbekistan*. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2025.
7. World Trade Organization. *Uzbekistan reaffirms 2026 WTO accession goal, thanks members for continuing engagement*. — Geneva: World Trade Organization, 2026.
8. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. *Monetary Policy Review: Labour Market and Remittances, 2025*. — Tashkent: Central Bank of the Republic of Uzbekistan, 2026.
9. KOF Swiss Economic Institute. *KOF Globalisation Index 2025*. — Zurich: ETH Zurich, 2025.
10. Qodirova D. The impact of globalization on developing countries // *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*. — 2026. — Vol. 13, No. 06. — P. 149–152.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>